

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida .....	229
<b>Sh.T.Tursunkulova</b>	
G'azzoliyning go'zal axloq to'g'risidagi qarashlari.....	235
<b>I.M.Azimov</b>	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar .....	239
<b>Sh.D.Ismoilov</b>	
Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakl va metodlari .....	247
<b>A.A.Qambarov</b>	
Marg'ilonlik "Katta ashula" sohiblari.....	251
<b>M.Kamalitdinov, T.Mavlonov</b>	
Sharsimon qobiq dinamikasi qisman suyuqlik bilan to'ldirish.....	257
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksymoronning semantik xususiyatlari .....	261
<b>I.X.Mavlonov</b>	
Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari .....	266
<b>B.X.Baydjanov, Z.I.Muhammadiyeva</b>	
O'quvchilarda mantiqiy kompetentlikni shakllantirish usullari.....	272
<b>B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish .....	276
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi .....	280
<b>G.Z.Abduraxmonov</b>	
Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari.....	284
<b>O.A.Ashurova</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lif mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari .....	288
<b>Sh.Ismoilov</b>	
Nogironlik tushunchasining modellari.....	293
<b>D.O.G'afurov</b>	
Yangi O'zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda uning jamiyat ma'naviy rivojida tutgan o'rni.....	300
<b>D.B.Niyazov, M.M.Niyazova, Sh.M.Saydaxmedov, B.Z.Adizov, M.Y.Ismoilov</b>	
Nitron tolasi chiqindisi asosida F-seriyali flokulyantlarni olish .....	303
<b>D.S.Ergasheva</b>	
O'zbek xalq ertaklari orqali vatansevarlik va do'stlikga o'rgatishning pedagogik strategiyasini ta'nishlash.....	308
<b>G.M.Ravshanova</b>	
Axborotlashgan jamiyatda ta'lif va ta'lif axborotlashuvining dialektik aloqadorligi muammosini o'rganish .....	313
<b>O.O'.Xolmatova</b>	
O'zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari.....	320
<b>F.A.Tashpulatov</b>	
O'quvchi yoshlarni basketbolga o'rgatish texnikasining usullari.....	324
<b>S.G'.Shomurodova</b>	
Nikoh urf-odatlari bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini .....	329
<b>F.N.Usmonov</b>	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari .....	334
<b>E.Sh.Jumayeva, U.U.Ruzmetov, Z.A.Smanova</b>	
Suvdag'i og'ir metallarni aniqlash usullari va og'ir metallarning organizm hayotiy faoliyatiga zaharli ta'siri .....	340
<b>S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev</b>	
Allium karataviense o'simligi takibidagi flavonoidlar taxlili.....	349

## OKSYUMORONNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

### СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОКСИМОРОНА

#### SEMANTIC FEATURES OF OXYMORON

**Saminov Abdumalik Inomjonovich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Saminov Abdumalik Inomjonovich**

– Farg'ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrasи  
katta o'qituvchisi (PhD)

#### **Annotatsiya**

Oksymoron hodisasining semantik xususiyatlarini ochish, tasniflash o'ziga xos jihatlarini yoritish. Oksymoron hodisasining nazariy muammolarini aniqlashda va uning o'ziga xos belgilarini ko'satib berishda tavsifiy, sinxron-tasviriy, oppozitiv, qiyosiy, komponent tahvil usullaridan foydalaniilgan. Oksymoron bo'yicha ilmiy qarashlar chuqur tahvil qilindi, g'ayriodatiy birikmalarining semantik xususiyatlari tavsiflandi; oksymoron hodisasini shakllantiruvchi funksional-semantik ifoda vositalari izohlandi; oksymoron komponentlari o'tasidagi semantik munosabat turlari aniqlandi;

Bugungi globallashuv va integratsiya jarayonida milliy tilimizning ichki imkoniyatlarini yanada chuqur tadqiq etish katta ahamiyatga ega, madaniyatimizning uzviy bir qismi hisoblangan badii nutqda qo'llanuvchi tasviriy vositalar, jumladan, oksymoron usuli yordamida shakllangan sintaktik qurilmalarning nutqda qo'llanilishi jihatni bilan ajralib turadi; so'zlovchining an'anaviy ifoda vositalaridan zerikishi yoki yangicha shakl orqali o'ziga xos mazmun bayon qilishga intilishi va nutqqa retsipyent e'tiborni tortishga urinishi kabilar oksymoronni yuzaga keltiruvchi asosiy omildir; oksymoronlar semantik xususiyatiga ko'ra tafsiflandi: inson his-tuyg'ulari, xususiyati, faoliyati, xulq-atvori, jismoniy ko'rinishlari, yoshga xos xususiyatlari, tabiat hodisalari, hid-ta'm, rang bilan bog'liq kabi semantik munosabatlarni yuzaga chiqarishi o'rganildi.

#### **Аннотация**

Выявить семантические особенности явления оксюморон, уточнить особенности его классификации. С помощью методов описательного, синхронно-описательного, оппозиционного, сравнительного, компонентного анализа определены теоретические проблемы феномена оксюморона и показаны его специфические черты. глубоко проанализированы научные взгляды на оксюморон, описаны семантические особенности необычных сочетаний; объяснялись функционально-смысловые средства выражения, образующие явление оксюморона; выявлены типы семантических отношений между компонентами оксюморона.

В современных процессах глобализации и интеграции большое значение имеет дальнейшее изучение внутренних возможностей нашего национального языка, отличающегося использованием в художественной речи образных средств, которые считаются неотъемлемой частью нашей культуры, в том числе синтаксические устройства, образованные методом оксюморона; основным фактором, создающим оксюморон, является скуча говорящего традиционными средствами выразительности или его стремление выразить собственное содержание через новую форму и попытаться привлечь внимание адресата к речи; Оксюмороны были классифицированы по их семантическим свойствам: они создают смысловые отношения, такие как связанные с человеческими эмоциями, характеристиками, деятельностью, поведением, внешним видом, возрастными особенностями, явлениями природы, запахом-вкусом, цветом.

#### **Abstract**

*Is to reveal the semantic features of the oxymoron phenomenon, to clarify the specific aspects of its classification. Descriptive, synchronic-descriptive, oppositional, comparative, component analysis methods were used to determine the theoretical problems of the oxymoron phenomenon and show its specific features. Scientific views on oxymoron were deeply analyzed, semantic features of unusual combinations were described; functional-semantic means of expression forming the phenomenon of oxymoron were explained; types of semantic relations between oxymoron components were identified.*

*In today's process of globalization and integration, it is of great importance to further explore the internal capabilities of our national language, which is distinguished by the use of figurative tools in artistic speech, which are considered an integral part of our culture, including syntactic devices formed using the oxymoron method; the main factor that creates oxymoron is the speaker's boredom with traditional means of expression or his desire to express his own content through a new form and try to draw the recipient's attention to the speech; oxymorons were classified according to their semantic properties: they create semantic relations such as related to human emotions, characteristics, activities, behavior, physical appearance, age-specific characteristics, natural phenomena, smell-taste, color was studied.*

**Kalit so'zlar:** oksymoron, semantika, lingvopoetika, stilistik maqsad, kontrast, badiiy matn, tasnif, semantik munosabat.

**Ключевые слова:** оксюморон, семантика, лингвопоэтика, стилистическая цель, контраст, художественный текст, классификация, семантическое отношение.

**Key words:** oxymoron, semantics, linguopoetics, stylistic goal, contrast, literary text, classification, semantic relation.

#### **KIRISH**

Dunyo lingvistik tadqiqotlarida lingvopoetik vositalardan biri bo'lgan oksymoron xususida fikr-mulohazalar Ye.A.Atyayeva, A.A.Potebnya, Yu.M.Lotman, N.V.Pavlovich, Ye.Pavlova, E.V.Sedix, T.G.Bochina, L.I.Tatanova, G.G.Kuregyan, O.L.Yakutina, V.A.Sazonovalarning ilmiy

tadqiqotlarida o'z aksini topgan [4, 22, 16, 17, 21, 20, 25, 5, 26, 15, 31, 24]. Ularning ilmiy izlanishlarida oksyumoronning kontrast hodisa sifatida lingvopoetik, pragmatik, semantik-struktur jihatlariga e'tibor qaratilgan.

O'zbek tilshunosligida aynan oksyumoron mavzusi alohida monografik tarzda o'rganilgan bo'lmasa-da, M.Yo'idoshev, S.Karimov, M.Abdupattoyevlarning doktorlik [11, 13, 1], D.Zayniddinova, Sh.Abdurahmonov, E.Ibragimova, O.Mamaziyayev, D.Jamoliddinova, S.Umirova, O.Tursunova, N.Sadinovalarning nomzodlik [9, 3, 10, 18, 8, 29, 27, 23] dissertatsiyalarida o'zbek tili lingvopoetik masalalarini yoritish bilan badiiy tasvir vositalari trop va sintaktik figuralarning o'ziga xos belgilariga urg'u berilgan, shuningdek, oksyumoronning mohiyati haqida ayrim fikrlar bildirilgan. Bundan tashqari, A.Nurmonov, N.Mahmudov, X.Abdurahmonov, A.Mamajonov, M.Qurbanova, G.Roziqova, H.Do'smatov, U.Nosirova, N.Bazarboyevalarning ilmiy tadqiqotlarlarida bu hodisaga e'tibor qaratiladi. Bu xususida T.Boboyev, A.Hojiyev, D.Qurbanov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, F.Salayev, G.Qurbaniyozov, N.Xatamov, B.Sarimsaqovlarning filologik xarakterdagi lug'atlarida ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan hamda badiiy nutqning sintaktik belgilariga to'xtalib o'tilgan.

Shunga qaramay, oksyumoronning juda murakkab ko'p qirrali uslubiy hodisa ekanligi sababli, uni yanada kengroq o'rghanish foydadan xoli emas. Biz maqolamizda oksyumoronning semantik xususiyatiga ko'ra tasniflarini yoritishga harakat qilamiz.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Oksyumoron haqidagi qarashlarning asosini oksyumoronning anomal (*yun. Anomalia – notekislik; me'yordan chetlashish*) [28; 87] hodisa ekanligi e'tirof etilib, uning inson ongi va dunyoqarashini ifodalashdagi roliga e'tibor qaratiladi. L.A.Vvedenskayaning "Стилистические фигуры, основанные на антонимах" ("Antonimlarga asoslangan stilistik figuralar") maqolasida dastlabki namunalarga duch kelamiz. Ushbu maqolada L.A.Vvedenskaya oksyumoronni nafaqat antonimlarga asoslangan sintaktik-stilistik figura, balki uni "mantiqiy nuqtayi nazardan bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalarni ifodalovchi so'z birikmalarining o'ziga xos badiiy ko'rinishlaridan biri" [6; 128], deb ataydi. L.A.Vvedenskaya maqolada o'z diqqatini oksyumoronning lingvistik tabiatiga qaratadi. Oksyumoronning qismlari o'zaro zid ta'sir qiluvchi so'zlar sifatida, ya'ni antonimlik xususiyatiga ega ikki so'zning juft holda qo'llanilishiga qaratadi. Shuningdek, bunday yondashuv asosida oksyumoron antonim juftliklarning o'zaro bir-biri bilan kesishgan birikmaning natijasi yoki so'zlarning kombinatsiyasi – antonimlar sifatida paydo bo'ladi. Birinchi holatda "bitta antonimik juftlikning so'zları o'rın almashishi ikkinchi antonimik juftlik so'zlariga asos bo'ladi" [6; 128]: *faqir boy va boy faqir*. Ikkinchi holatda, "qarama-qarshi tushunchalar bitta obyektga yoki hodisaga tegishli, deb qaraladi" [6; 128]: *tirik murda*. Umuman olganda, oksyumoronning tarkibiy qismi o'rtasidagi munosabatning mohiyati haddan tashqari umumlashtirilgan: mantiqiy qarashlarga mos kelmaydigan tushunchalar tarzida ifodalanadi. E.A.Atayeva uning lisoniy mohiyati va uslubiy funksiyasi haqida muhim ma'lumotlar berar ekan oksyumoronni stilistik vositalarning bir turi, deb izohlaydi. M.I.Fomina ma'lum bir kontekstda antonimik tushunchalarni taqqoslashga asoslangan stilistik qurilma, deb qaraydi va quyidagicha fikr bildiradi: "u mantiqiy jihatidan keskin zid bo'lgan va o'zaro bir-birini mantiqan istisno qiladigan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar birikmasidan iborat" [30; 151]. Bundan tashqari, M.I.Fomina oksyumoron hodisasini antiteza, okkazionalizm (individul antonim), semantik antonim kabi sintaktik figuralar qatorida tahlil qiladi. I.B.Golub esa oksyumoron asosida antonimlik xususiyati yotishini hamda u aniqlovchi-aniqlanmish zidlanishidan yuzaga chiqishini ta'kidlaydi [7; 55]. Shuningdek, asarning boshqa joyida oksyumoronni epitetning bir turi sifatida izohlaydi hamda *tirik murda, quvonchli qayg'u* [7; 172] lisoniy dalillarini beradi. Bizningcha, bu fikr o'zini unchalik oglamaydi, chunki epitetda aniqlanmishni obrazli tarzda izohlash orqali tasviriylikka, obrazlilikka erishilsa, oksyumoronda qismlar bir-birini aniqlashi emas, balki o'zaro birikkan holda oraliq-modal munosabat ma'nosini yuzaga chiqaradi. A.V.Kuznesova o'zining "M.Yu.Lermontov ijodida kontrast figuralar" nomli dissertatsiyasida oksyumoronni boshqa kontrast vositalar qatorida o'rGANADI. Uning fikricha, bu leksik kombinatsiya ma'nolari qarama-qarshi bo'lgan birikmadir, qismlarning birikishi natijasida yangi hosila – uchinchi semantik tushuncha yuzaga chiqadi. Oksyumoron hodisasining bir-biriga qarama-qarshi qismlari, zid tomonlari so'zlovchining ruhiy holatidagi, qarashidagi, kayfiyatidagi o'zgachalikni ko'rsatadi. Birikmaning tarkibiy qismlaridan biri referent (so'zlovchi)ning obyektiv xususiyati va sifatini belgilasa, ikkinchi qismi subyektiv tavsiflash uchun xizmat qiladi. So'zlarning kutilmagan birlashmasidan hosil bo'ladi va referentning

yangi xususiyatlarini ochib beradi” [14; 12], deb ta’kidlaydi. U o’z fikrlarini “oksyumoron – gorizontal qarama-qarshilik munosabat, vertikal o’xhashlik (metafora) munosabatlari metonimiya orqli birlashtirilgan, u tabiatiga ko’ra gibrit figura” [14; 13] sifatida xulosalaydi. Albatta, oksyumoron hodisasida qarama-qarshilik, o’xshatish, ironik munosabatlari birlashtirilgan.

O’zbek tilshunosligida X.Abdurahmonov, N.Mahmudovlarning “So’z estetikasi” nomli asarida g’ayriodatiy bog’lanishlar haqida quyidagicha nazariy fikrlar bildiriladi: “Estetik butunlik bo’lgan badiiy asar ijodkori uchun esa “narsalarning qat’iy, yalang’och mohiyati” emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatlidir. Ijodkor ana shu maqsad bilan tildan yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday imkoniyatlardan biri nutqda o’zaro bog’lanishi chegaralangan so’zlarni biriktirish orqali turli ma’no nozikliklari, ekspressivlik, emotsiyonallik va shu kabilarni yuzaga chiqarishdir. Badiiy nutqdagi bunday birikmalarни shartli ravishda g’ayriodatiy birikmalar deb ataymiz” [2; 40]. Ko’rib turganimizdek, g’ayriodatiy birikmalar badiiy nutqda ekspressivlikni oshiruvchi, har bir ijodkor o’zining mutlaqo xususiy fikrlarni individual tarzda ifodalash uchun qo’llaniladigan usullardir.

“So’z estetikasi” asarida bunday birikma o’tkinchi hodisa ekanligi ta’kidlangan holda: “Nutqda u dastlab g’ayriodatiy sintaktik qurilma hisoblanib, o’zida “yangilik”, g’ayritabiyy o’zgachalik belgisini saqlaydi. Ammo keyinchalik davr o’tishi bilan uning ekspressivligi kamayishi, xalq tilida odatiy birikmaga aylangan holda qo’llanib, o’zidagi “yangilik” bo’yog’ini yo’qotadi, hamda odatiy birikmalarday tuyuladi” [2; 41], deb ta’kidlanadi. Masalan, *qattiq gap, shirin uyqu, shirin xotira, achchiq tashvish* kabilar.

Ayrim hollarda esa ma’nolari bir-biriga mutlaqo zid bo’lgan so’zlarni o’zaro bog’lash bilan g’ayriodatiy birikmalar hosil qilinadi. Bunda birikma juda yuqori ekspressivlik va emotsiyonallik kasb etadi, kuchli emfatik intonatsiyaga ega bo’ladi. Adabiyotshunoslikda bu *oksyumoron* nomi bilan yuritiladi [2; 43]. Demak, mualliflar yuqoridagi fikrlari bilan o’z-o’zidan oksyumoronni g’ayriodatiy birikmalarning bir turi sifatida qaraydilar.

G’ayriodatiy birikmalar har bir ijodkorning o’ziga xos uslubi shakllanishida alohida o’ringa egaligi to’g’risida ko’plab tadqiqotchilarimiz fikr bildirganlar: yuqoridagi asarda ham “G’ayriodatiy birikmalardagi so’zlar ma’nosining konkretlikdan abstarktlik tomon siljishi, undagi moddiy tushunchaning yo’qolishi, ya’ni nomoddiy lashuvi natijasida yuzaga keladigan ekspressiv-emotsionallik, ko’pincha, individual xarakterda bo’ladi” [2; 45] degan xulosaga keladilar.

Bundan tashqari, o’zbek tilshunosligining yana bir zabardast olimi A.Nurmonov o’zining nazariy qarashlarida, ushbu sintaktik figura haqida: “O’zaro sintagmatik munosabatga kirishayotgan leksemalar o’rtasida semik uyg’unlik, mazmuniy muvofiqlik bo’lmasa, bunday bog’lanish noodatiy bog’lanishni vujudga keltiradi va u *oksyumoron*, deyiladi. Oksyumoronorlar badiiy asarlarda obrazlilikni ta’minalash, ta’sirchanlikni oshirish uchun adibning individual nutqi sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, *shirin o’lim, yashil sabo, qizil qor, yalpizga suyanmoq* (M.Yusuf), *kiprikka o’tirmoq* (M.Yusuf) [19; 156] kabi ma’lumot va lisoni dalillarni keltiradi. Demak, olim leksemalar o’rtasidagi semantik munosabatga asosiy urg’u beradi. Oksyumoronga juda keng ma’noda qaraydi hamda so’zlar o’rtasidagi semantik munosabatlarni har ikki qism bir-biriga mos kelganlarini odatiy, mos kelmaydiganlarini esa noodatiy, ya’ni *oksyumoron* degan fikr bildiradi.

M.Yo’ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” o’quv qo’llanmasida oksyumoronning fanda turlicha nomlanishi hamda uni antitezaning bir ko’rinishi ekanligi haqida shunday fikrlarni bildiradi: “Adabiyot ilmida *oksyumoron* deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo’lgan ikki tushunchani ifodalovchi so’zlar o’zaro qo’shib qo’llaniladi. *Oksyumoron* grekcha so’z bo’lib, “otkir, lekin bema’ni” degan ma’noni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda “*okkazional birikmalar*”, “*noodatiy birikmalar*” yoki “*g’ayriodatiy birikmalar*”, deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko’nikilmaganligi va ohorlligi bilan tasvir ifodaliliginini ta’minalaydi: *Sokin hayqiriq* (M.Ali), *otashin muz, yong’inli daryo, so’qir lomakon, yalang’och shuur, yaxlagan sarob* (R.Parfi), *oppoq tun, so’zsiz suhabat* kabi so’z birikmalari oksyumoronga misol bo’ladi. Bunday g’ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko’rinishi sifatida talqin qilinadi. Ma’lumki, istalgan ikki so’zni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g’ayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bog’lash mumkin emas” [11; 82-83]. Olimning oksyumoron – antitezaning bir ko’rinishi, deyishiga sabab, bizningcha, oksyumoron hodisasida qarama-qarshi

ma'nodagi leksemalarning qo'llanishi turtki bo'lgan. To'g'ri, antitezada ham, oksyumoronda ham kontrast holat bor, shu ma'noda ularning har ikkisi bir hodisaning ikki ko'rinishiday tuyuladi.

S.Karimov ham o'zining qarashlarida oksyumoron hodisasi haqida fikr bildirar ekan, oksyumoronni antitezaning bir ko'rinishi [13; 47] sifatida baholaydi. Biz oksyumoronning yondosh hodisalar bilan umumiylar farqli xususiyatlari haqida ishimizning ikkinchi bobida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Sh.Abdurahmonov o'zining ilmiy tadqiqotida [3; 23] oksyumoron haqida "Matn birliklarida ifodalangan axborotlarning mazmunan bir-birini inkor etishi" [3; 13], deya fikr bildiradi. Tadqiqotchining fikriga suyanadigan bo'lsak, oksyumoronlar nafaqat so'z birikmalarining qismlari o'rtasidagi qarama-qarshilik, balki gaplar orasidagi mazmuniy inkor orqali ham hosil bo'lishi mumkin.

M.Qurbanova, M.Yo'ldoshevlarining "Matn tilshunosligi" asarida "oksyumoronga estetik hodisa sifatida yondashish zarur" [11; 78-79], deb ta'kidlanadi. Xuddi shunday fikr H.Do'smatov, N.Bazarbayevalar maqolalarida ham kuzatiladi. Xususan, ular oksyumoronga inson ruhiy olamidagi qarama-qarshilikning aksi, shartli mantiqsizlik orqali ifodalaniqidigan mantiq, uslubiy vosita tarzida baholab, bu figuraga ekspressivlikni oshiruvchi estetik hodisa sifatida qaraydilar.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oksyumoron haqidagi bildirilgan fikrlarning xilma-xilligiga qaramay, ushbu tendensiyalar oksyumoron mohiyatini quyidagi jihatlari bilan umumiylashtirgan: birinchidan, asosiy e'tibor oksyumoronni shakliy-mantiqiy jihatdan tushunishga qaratilgan. Bundan tashqari, mantiqiy muvofiqlikning buzilishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi: barqaror, bog'lanuvchi tushunchalar nomuvofiqlik, zidlik, qarama-qarshilik uning lingvistik ifodasida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ba'zan uni o'ziga xos alohida sintaktik figura sifatida, ba'zan unda o'zaro ta'sir qiluvchi hodisalarning vositalari, ishslash usullari haqida aytildi. Bog'lanishi haqida: "qo'shish", "birlashish", "qasddan, ataylab yaqinlashtirish va kombinatsiya", "birlashma". Ikkinchidan, oksyumoronning lug'at-ensiklopedik ta'riflarida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita (ta'rifning o'zida yoki izohlarda berilgan) uning chambarchas bog'liq hodisalar bilan o'zaro bog'liqligini o'rnatishga harakat qilinadi. U o'zaro ta'sirning turi va tabiatli orqali yoki oksyumoron tarkibiy qismlarining semantik tabiatli orqali o'tadi. Uchinchidan, oksyumoron mohiyatini badiiy vosita sifatida aniqlash tendensiyasi keng yoritilgan. To'g'ri, lug'atlarda oksyumoronni trop, uslubiy figura, uslubiy qurilma va uslubiy xato sifatida baholangan fikrlar ham bor.

*Oksyumoronlar shaklan birikma ko'rinishida namoyon bo'lsa-da, semantik jihatdan o'ziga xos bo'ladi. Bu, ayniqsa, badiiy nutqda asar qahramonlari yoki obrazlarning xarakterli belgilarini ochib berishda qulay uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Oksyumoron usulida shakllangan birikmalar g'ayriodatiy bo'lib, fikrni ta'sirli va uslubiy jihatdan bo'yoqdor, ifodali tarzda yuzaga chiqishida samarali uslubiy vosita hisoblanadi.*

Oksyumoron turli xil ma'no xususiyatlarni ifodalashi bilan ham o'ziga xos turlarni yuzaga chiqaradi. Masalan, ba'zi oksyumoronlar inson his-tuyg'ulari, xususiyati, faoliyati, xulq-atvori, jismoniy ko'rinishlari, yoshga xos xususiyatlari, tabiat hodisalari, hid-ta'm, rang bilan bog'liq kabi semantik munosabatlarni yuzaga chiqarish mumkin.

Biz ushbu maqolada okysimoronalarning ana shunday xususiyatiga kўra kуйидагича tasniflashni ma'qul topdik:

- 1) his-tuyg'ular bilan bog'liq oksyumoronlar: *shafqatsiz muhabbat, ma'sum baxt, shirin armon, g'arib baxtiyorlik.*
- 2) xulq-atvori: *jodugar pari qiz, go'zal yovlik, vahshiy go'zal qahr;*
- 3) inson ko'rinishlar bilan bog'liq: *nozik semiz odam, daxshat go'zal, so'qir mengan* va hokazo.
- 4) yoshga xos xususiyatlar bilan bog'liq oksyumoronlar: *ellik yashar chaqaloq, yosh chol, qari qizni* va boshqalar
- 5) ijtimoiy holat: *g'arib baxtiyorlik, boy tilanchi, qadrdon begona* va boshqalar
- 6) tabiat hodisalari va holatlari bilan bog'liq: *qora chaqmoq, issiq qor, sukunatning baqirig'i, yorug' tun, qora kun.*
- 7) zamon va makon semasi bilan bog'liq: *mangu yonar lahzalik otash, abadiy lahma.*
- 8) hid-ta'm bilan bog'liq: *shirin og'u, shirin zahar, hushbo'y qo'lansa*

9) harakatlar va holatlar bilan bog'liq: *go'zal yig'i, go'zal o'lim, so'zsiz javob bermoq.*

10) harorat xususiyatlari: *muzlarni yoqmoq, otashin bo'ron, issiq qor, muzlagan olov, issiq muz va hokazo*

11) tovush bilan bog'liq xususiyatlari: *sukunat tovushi, ovozsiz so'ylar, ovozsiz chinqirib kelar kelajak*

12) oilaviy ahvoli: *uylangan bo'ydoq, turmush qurmagan beva;*

13) rang bilan bog'liq: *qora nur, oq ko'mir, qora oqqush, oydin tun va boshqalar;*

14) narsalarning nomi bilan bog'liq: *quruq suv, quruq choy, muzlagan olov;*

15) ko'rinish bilan bog'liq: *gigant chaqaloq, kichkina polvon va hokazo.*

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, oksyumoronlar o'ziga xos ma'no turlariga ega bo'lib, ularning ifodalashi ham turlichadir. Mana shu xususiyat oksyumoronlarning lingvopoetik hamda stilistik jihatlarini o'rganish zaruratinini ko'rsatadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллатоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол. фан. док. дисс. – Фарғона, 2021. – 224 б.
2. Абдураҳмонов X., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, Фан. 1981. 40 б.
3. Абдураҳмонов Ш. Ўзбек бадий нутқида кулгига қўзғатувчи лисоний воситалар. Фил.фан.ном. дисс. Автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б;
4. Атаева Е.А. Лингвистическая природа и стилистические функции оксюморона: на примере английского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва, 1975. – С. 37;
5. Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы. Автореф. дис... док. филол. наук. – Казань, 2003. – С. 52;
6. Введенская Л.А. Стилистические фигуры, основанные на антонимах // Учебные записки Курского и Белгородского пед. ин-тов. Краткие очерки по русскому языку. – Т. XXV. – Вып. 2. – Курск, 1966. С. 128
7. Голуб И.Б. Стилистика русского языка. Учебное пособие. – 11-е изд. – Москва, Айрис-пресс, 2010. – С. 55.
8. Жамолиддинова Д. Бадий нутқида парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б
9. Зайнiddинова Д. Рус ва ўзбек тилларида ғайриодатий биримлар. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.
10. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 25 б.
11. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқики. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б.
12. Каримов С. Бадий услугуб ва тилнинг ифода-тасвир воситалари. – Самарқанд, СамДУ, 1994. 47 б.
13. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуги. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1994. – 292 б.
14. Кузнецова А.В. Фигуры контраста в творчестве М.Ю.Лермонтова. Автореф дис... канд. филол. наук. – Ростов-на Дону, 1998. – С. 12
15. Курегян Г.Г. Лингвопрагматический статус оксюморона. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Майкоп, 2007. – С. 25.
16. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Ленинград, "Просвещение" (Ленинградское отделение). 1972. – С. 272.
17. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва, Искусство, 1998. – С. 280.
18. Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Фарғона, 2004. – 26 б.
19. Нурмонов А. Танланган асарлар. З жилдли З-жилд. – Тошкент, Академнашр, 2012. 156 б.
20. Павлова Е. Оксиморон като стилистичен похват // Ез. и лит. – С. 1992. – № 2 – С. 104-112.
21. Павлович Н.В. Семантика оксюморона, Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Москва, 1982. – С. 21.
22. Потебня А.А. Полное собрание трудов: Мысль и язык. – Москва, Изд-во Лабиринт, 1999. – С. 300.
23. Садинова Н. Бадий матнларда контрастнинг лингвопрагматик хусусиятлари (Анвар Обиджон, Усмон Азим, Аъзам йўқтам асарлари мисолида) Фил. фанл. б.фал.док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021, 49 б.
24. Сазонова В.А. Антонимы как средства выражения контраста в языке и художественной речи. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Красноярск, 2011. – С. 22.
25. Седых Э.В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения. Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1997. – С. 18.
26. Татанова Л.И. Дискурсивные характеристики оксюморона в англоязынной художественной литературе. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва, 2006. – С. 28.
27. Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларнинг поэтик имкониятлари. Филол. фан. б. фал. док. (PhD) дисс. – Фарғона, 2019, 132 б.
28. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли 1-жилд. ЎзМЭ давлат илмий нашрёти. – Тошкент, 2006. – Б. 87.
29. Умирова С. Ўзбек шеърийтида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида). Фил. фанл. б.фал.док. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 48 б.
30. Фомина М.И. Современный русский язык. Лексикология. Учеб. для филол. спец. Вузов. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва, Высш. шк., 1990.– 415 с. Б. 151.
31. Якутина О.Л. Лингвистическая природа и стилистический потенциал катахрезы. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва, 2007. – С. 19.